

Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**2018 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)**

Ish haqi. 2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- ta'limda 932 ta muassasada 55878 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 164507995,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 42,5 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 995740,5 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 15,1 %ga o'sdi;

- sanoatda 34 ta korxonada 12343 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 51593487,2 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 13,3 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1413528,4 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 24,4 %ga o'sdi;

- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 59 ta muassasada 21400 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 60311715,7 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,6 %ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 949573,5 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 16,0 %ga o'sdi;

- tashish va saqlashda 7 ta korxonada 2512 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 13253550,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,4 %ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1759972,1 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 38,4 %ga o'sdi;

- moliyaviy va sug'urta faoliyatida 29 ta muassasada 3001 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 21562127,5 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,6 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2421502,1 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 35,2 %ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1130575,8 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 24,1 % ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


| | Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik | Xodimlar soni, kishi | Ish haqi fondi, ming. so'm | O'rtacha oylik ish haqi, so'm |
|--|--|-----------------------------|-----------------------------------|--------------------------------------|
| Xorazm viloyati - jami | 1485 | 115411 | 386916703,3 | 1130575,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Sanoat | 34 | 12343 | 51593487,2 | 1413528,4 |
| Qurilish | 11 | 1375 | 4123357,0 | 1001843,8 |
| Savdo | 23 | 2206 | 8044799,5 | 1239966,2 |
| Tashish va saqlash | 7 | 2512 | 13253550,0 | 1759972,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 10 | 6 | 22678,0 | 1259888,9 |
| Axborot va aloqa | 18 | 829 | 3498752,2 | 1408417,5 |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati | 29 | 3001 | 21562127,5 | 2421502,1 |
| Ta'lim | 932 | 55878 | 164507995,0 | 995740,5 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 59 | 21400 | 60311715,7 | 949573,5 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 40 | 1353 | 3454840,8 | 862829,8 |
| Boshqa faoliyat turlari | 322 | 14508 | 56543400,4 | 1403119,2 |

2018 yil yanvar-mart oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqada 49,7 %, moliyaviy va sug'ruta faoliyatida 35,2 %, sanoatda 24,4 %, qurilishda 19,5 % kuzatildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 114,2%ga, axborot va aloqada 24,6 %ga, sanoatda 25,0 %ga, tashish va saqlashda 55,7 %ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmarlarda 11,4 % ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 16,0 %ga, ta'limda 11,9 %ga viloyatdan kamni tashkil etmoqda.




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida **1379300.5** so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(122,0 %)**) tashkil etgan bo'lsa, Gurlan tumanida **966577,7** so'mni (**85,5 %**), Xiva tumanida **985405,7** so'mni (**87,2 %**), Shovot tumanida **913079,9** so'mni (**80,7 %**) va Yangibozor tumanida **935264,1** so'mni (**82,7 %**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-mart oylarida **426466,2** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, so'm)

| | 2017 yil | 2018 yil | O'sish sur'ati, % |
|------------------------|-----------------|------------------|-------------------|
| Xorazm viloyati | 910886,4 | 1130575,8 | 124,1 |
| Urganch shahar | 1051474,5 | 1379300,5 | 131,2 |
| Xiva shahar | - | 991890,2 | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bogot | 839696,4 | 1004057,7 | 119,6 |
| Gurlan | 787551,4 | 966577,7 | 122,7 |
| Qo'shko'pir | 862751,4 | 1005239,0 | 116,5 |
| Urganch | 844831,2 | 1064010,5 | 125,9 |
| Xazorasp | 938026,6 | 1110838,1 | 118,4 |
| Xonqa | 886927,6 | 1067965,2 | 120,4 |
| Xiva | 846407,6 | 985405,7 | 116,4 |
| Shovot | 783880,0 | 913079,9 | 116,5 |
| Yangiariq | 844691,8 | 1045491,9 | 123,8 |
| Yangibozor | 781284,6 | 935264,1 | 119,7 |



Xorazm viloyati
Demografiya va mehnat statistikasi bolimi